



**ISHLAB CHIQARISH KORXONALARING EKSPORT FAOLIYATI
VA SALOHIYATINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi

So'nggi yillarda O'zbekistonda mintaqalarning eksport salohiyatini oshirish va mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish, mavjud imkoniyatlardan to'la foydalangan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini rivojlantirish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini oshirish"¹ kabilar milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning muhim yo'nalishlari sifatida belgilab berilgan.

Korxonaning eksport salohiyati va faoliyati ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, u xorijiy hamkorlar, mahsulot assortimentini tanlashda, shartnomaning narxi, hajmi va yetkazib berish muddatlarini belgilashda to'liq mustaqillikka egaligi bilan tavsiflanadi. Bu imkoniyat eksport operatsiyalari samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni to'g'ri boshqarish orqali yanada natijador bo'ladi. Shu munosabat bilan korxonalar eksport salohiyati va faoliyatini rivojlantirishda ularga ta'sir etuvchi omillarni boshqarishni o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



etmoqda.

"Omil" atamasi qandaydir jarayon yoki hodisaning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta'riflanadi. "Eksport samaradorligi omili" tushunchasi korxonaning eksport samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan holat sifatida belgilanishi kerak. Omil - tashkilot faoliyati, eksport strategiyasi va taktikasi, tashqi bozor, mahsulot yoki tarmoqning ko'p qirrali tavsifi bo'lib hisoblanadi. U bir o'lchovli va o'chanadigan o'zgaruvchilar to'plami bilan tavsiflanadi.

S.I.Ojegov tomonidan tahrirlangan, 1953 yilda nashr qilingan rus tili lug'atida "omil" atamasining quyidagi ta'rifi berilgan: "Omil - bu qandaydir jarayon yoki hodisaning harakatlantiruvchi kuchi", 1997 yil nashridagi bu atamaning kengroq talqinini beradi: "Omil - bu qandaydir jarayon yoki hodisaning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, uning xarakteri yoki individual xususiyatlarini belgilab beradi". Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni tasniflashga turlicha yondashuvlar mavjud. Bir necha omillar guruhlari mavjud: korxonaning xususiyatlari (hajmi, xalqaro kompetentsiyasi, xalqaro ish tajribasi va boshqalar), tarmoq va bozor; psixologik xususiyatlar; maqsadli segmentni tanlash.



Ba'zi iqtisodchilar omillarni faqat ikki guruhga ajratadilar: tashqi va ichki, ichki omillar doirasida esa ekstensiv va intensivni o'rganadilar. Bir qator tadqiqotchilar yuqorida muhokama qilingan tasnifni omillar bo'linishining qo'shimcha belgilarini kiritish orqali kengaytiradilar, bu mahalliy va global, ijobiy va salbiy, miqdoriy va sifat omillarini va boshqalarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.


Shuni hisobga olish kerakki, xalqaro maydonda faoliyat yuritayotgan korxonaning tashqi muhiti milliy bozorda faoliyat yuritayotgan korxonaning tashqi muhitidan sezilarli darajada farq qiladi. Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyatni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida hisobga olgan holda, eksportga yo'naltirilgan korxona faoliyatini rejalashtirayotgan potentsial tashqi bozorning tashqi muhitining ta'sirini hisobga olish juda muhimdir. Garchi globallashuv sharoitida xalqaro muhitning ta'sirini ichki bozorda, qoida tariqasida, o'xshash tovarlarni jahon ishlab chiqaruvchilari bilan raqobat sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar ham boshdan kechirayotganini inkor etib bo'lmaydi.

Tadqiqot korxonalar eksport imkoniyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash imkonini berdi (1-rasm).

Xalqaro miqyosda faoliyat yuritayotgan korxonalarning tashqi muhiti ichki bozor doirasida faoliyat yurituvchi korxonalarning tashqi muhitidan sezilarli darajada farq qiladi. Bundan tashqari, faoliyat yuritadigan xalqaro tashqi muhit omillarining eng muhim ta'siri eksportga yo'naltirilgan yoki eksport faoliyatini ustuvor yo'nalishlardan biri deb hisoblaydigan korxonalar uchundir. Hozirgi globallashuv va milliy iqtisodiyotlarni liberallashtirish sharoitida xalqaro muhitning ta'sirini faqat ichki bozor doirasida faoliyat yuritayotgan korxonalar ham boshdan kechirayotgani shubhasizdir. Bular, masalan, xalqaro raqobat, xalqaro texnik va ekologik standartlar va boshqalar.

Korxonaning eksport imkoniyatini belgilab beruvchi omillar

Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari



1-rasm. Korxonaning eksport imkoniyatini belgilovchi omillar²

Yana bir xorijiy mualliflarning H. Holzmuller va X. Kasper o'z ishlarida eksport natijalariga ta'sir qiluvchi bir necha o'nlab omillarni aniqladilar va keyinchalik ularni beshta guruhga birlashtirdi:

- korxonaning ob'ektiv xususiyatlari;
- korporativ madaniyat;

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



- boshqaruvning obyektiv xususiyatlari;
- boshqaruvning psixologik xususiyatlari;
- ekologik omillar.

Xorijiy tadqiqotchilar Kotler F., Armstrong G., Meskon M.X., Albert M., Xedouri F., Porter M xalqaro biznes faoliyat yuritadigan muhit omillarini tahlil qilganda, xususan, korxonaning o'zi odatda kompaniyaning tashqi bozorlardagi faoliyati samaradorligiga ta'sir qiluvchi to'rtta asosiy omilni - madaniyat, iqtisodiyot, qonunchilik va davlat tomonidan tartibga solish, siyosiy muhitni ajratib ko'rsatishadi. Ichki bozordan tashqarida biznes yuritishda tegishli tartiblar tashqi muhitning muayyan o'ziga xos omillari uchun o'zgartirilishi kerak deb hisoblaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. AA Urinboevich Directions for ensuring the sustainable development of industrial enterprises in the context of economic liberalization. International Engineering Journal For Researc-2020
2. Urinboevich, Adashev Azimjon. "Analysis of sustainable development of small business components of the republic of uzbekistan." *E-Conference Globe*. 2021.
3. AU Adashev Models of transition to market economy, their commonwealth and differences Экономика и социум, 2018
4. AU Adashev The content bases of the innovative development in companies Высшая школа, 2017
5. Adashev, A. U. "Financial management as a system and mechanism of finance management." *Экономика и социум* 3 (2020): 6-8.

